



UDK: 553.98:822.(575.16.192)

Karimboy YUSUPOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ykarimov@mail.ru

Geologiya fanlari universiteti (PhD) katta ilmiy xodimi M.R. Jurayev taqrizi asosida

OIL PRODUCTIVITY OF OIL FIELDS OF THE CENEZOIC ERA NEOGENE PERIOD OF FERGANA REGION

Annotation

The results of the study of mainly oil fields are presented in the structures belonging to the cenozoic era from a geological point of view of the epiplatform of the Fergana bottleneck of The orogen type, located in the inner part of the Tianshan mountainous region.

Key words: Tianshan, Fergana bottleneck, Bactria, depression, resin, epiplatforma.

НЕФТЕПРОДУКТИВНОСТЬ НЕФТЯНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ КАЙНЕЗОЙСКОЙ ЭПОХИ НЕОГЕНОВОГО СЭСТЕМА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Представлены результаты изучения преимущественно нефтяных месторождений в структурах, относящихся к кайнозойской эре с геологической точки зрения эпиplatformы Ферганского горлышка орогенного типа, расположенной во внутренней части горного региона Тяньшань.

Ключевые слова: Тяньшань, Ферганский области, бактрия, депрессия, смола, эпиplatforma. Тяньшань, ферганский батик, бактрия, депрессия, смола, эпиplatforma.

FARG'ONA REGIONI KAYNAZOY ERASI NEOGEN DAVRI YOTQIZIQLAR NEFTGA MAHSULDORLIGI

Аннотация


Tyanshan tog'li oblastining ichki qismida joylashgan orogen tipdagi Farg'ona botiqligi epiplatformasining geologik nuqtai nazardan Kaynazoy erasiga mansub bo'lgan strukturalarda asosan neft konlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tyanshan, Farg'ona botiqligi, Baqtriya, Depressiya, Qatronlar, Epiplatforma.

Kirish. Respublikamiz sanoati va energiya resurslarni boyitish yanada takomillashtirish soxaning rivoji uchun bugungi kundagi muhim hisoblangan beshta neft va gaz regionlaridan biri bo'lgan Farg'ona regionining geologik tuzilishini o'rganish va neft maxsulдорligini baxolash xisoblandi. Tyanshan tog'li oblastining ichki qismida joylashgan orogen tipdagi Farg'ona artezian havzasi maydon jihatdan 80 ming km² hududni o'z ichiga oladi. Geologik nuqtai nazardan Farg'ona botiqligi epiplatforma orogenining yirik strukturaviy hududi hisoblanadi. Stratigrafik jihatdan esa mezozoy va kaynazoy eralari yotqiziqlaridan tarkib topgan. Ko'plab neft va gazga istiqbolli strukturalar qidirish va tadqiqot ishlari natijasida mezozoy erasida asosan gaz konlari, kaynazoy erasiga mansub bo'lgan strukturalarda esa asosan neft konlari hosil bo'lganligi aniqlangan.


I.V.Mushketovning 1904 yilda Turkiston nomi bilan nashr etilgan birinchi umumlashtirilgan asarida keltirib o'tiladi. Bu asarda hududning geologik tuzilishi haqida umumiy tushunchalar berilgan. I.V.Mushketov Farg'ona botiqligini o'rab turgan tizmalarda burmalanishning ikki yo'nalishi Oloy (shimoli-sharqiy) va Farg'ona (shimoli-g'arbiy)ni ajratib ko'rsatgan. U birinchisini qadimgi ya'ni paleozoy, ikkinchisini yoshroq, asosan kaynozoy yoshida deb hisoblagan.

Kaynazoy erasiga mansub bo'lgan strukturalarda asosan neft konlari hosil bo'lgan. Neftning asosiy zaxiralari Paleogen yotqiziqlarida (85,5%); Neogen davrida (12,3%) , Bo'r va Yura davriga mansub jinslarda esa neftning zaxiralari (2,2%) aniqlangan (1-rasm).



Ushbu neft konlaridagi kimyoviy xususiyatlari ularning paydo bo'lishi genezisidagi o'xshashlik borligi uglevodorod uyumlari hosil bo'lganidan so'ng ularga tashqi omillar ta'sir etmaganligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda Baqtriya konlaridan neft qazib olish Farg'ona depressiyasining janubi-sharqiy zonasi: Janubiy Alamshiq, Bo'ston, Andijon, Shahrixon-Xojiobod va G'arbiy Palvantash konlarida amalga oshirilmoqda. Ro'yhatdagi barcha konlarda Baqtriya seriyasining tagida yotgan qumtoshlar va toshlar to'plami sanoat jihatdan neftga ega strukturalar sifatida ajralib turadi. Strukturaning litologik tarkib jihatdan mayda toshli konglomeratlar va och jigarrang gil bilan almashinadigan jigarrang qumtoshlardan iborat. Farg'ona depressiyasining chuqurligi bilan yon qanotlaridagi neogen yotqizqlarida neft o'zgarishlarining



1-rasm. Mezozoy erasida hosil bo'lgan neftning asosiy zahiralari.

Mingbulak, Shorbulak xamda Tergachi neft konlarini misol qilib aytish mumkin.

1-jadval.

Neogen davridagi neft konlari sxemasi

Система																	
Отдел																	
НЕОГЕНОВАЯ	Плиоцен	Бактрийская	Андижан	I a													
				I б													
				I													
	Миоценовый	Масгетская	Белло-розовая	БРС-6													
				БРС-7													
				БРС-8													
		Корично-красная	ККС-1														
			ККС-2														
			ККС-3														
			ККС-4														
			ККС-5														
			ККС-6														
		Ярус, серия, этаж	Синта	Горизонт	Заплаваташ	Паланташ	Андижан	Ходжабад	Бостон	Жан-Алматыш	Караджада	Гумана	Минбулак	Шорбулак	Тергачи		

Aytib o'tilgan neogen davrida hosil bo'lgan neft konlari asosan o'rganilayotgan hududning janubi-sharqiy zonasida tarqalgan. Geokimyoviy ma'lumotlarga ko'ra, 147-1290 m chuqurlikda joylashgan neft tarkibi va xususiyatlari juda muhim chegaralarda farq qiladi. Neogen cho'kindi neft mahsulotlari tarkibidagi oltingugurt miqdori past (0,14-0,40%), zichlik 0,821 g / sm³ oralig'i 0,899 g / sm³ gacha oshib borishi kuzatiladi. Neft tarkibida 2-20, 9% parafin, 0,01-26,4% smolalar, 0,1 - 25,7% asfaltenlar, 14,0-34,0% benzin bor. Qatronlar tarkibi 2,3% dan 26,6% gacha o'zgarib turadi va aksariyat hollarda ularning miqdori 10,8-26,6% ni tashkil qiladi. Janubiy Alamshik neft konida juda oz miqdordagi qatronlar (2,3-5,0%) mavjud.

Sanoat miqyosiga molik uglevodorod uyumlari mezozoy-kaynozoy hosilalari kesimining hamma qismida qayd qilingan. Farg'ona neftgazli regioni Polvontosh, G'arbiy Polvontosh, Boston, Andijon, Sharixon-Xodjiabad, Janubiy Olamushuk, SHo'rbuloq, Tergachi, Kosonsoy, Moylisuv-IV, Sharqiy Izboskent, Izboskent, Mingbulok, Gumxona, Qorajiyda konlaridagi neogen yotqizqlari neftlarining geokimyoviy ma'lumotlari o'rganildi.

Misol qilib neogen davri yotqizqlarida hosil bo'lgan bir qancha konlarni aytib o'tish mumkin Boston konini 446-qudug'ini oladigan bo'lsak, 323-348 metr oralig'ida neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan xomashyosi - o'rtacha og'ir (0,858 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,32 g/sm³), smolali (7,8 %) va benzinli (24,0 %). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (MNA) toifasiga mansub.

Polvontosh koni 265-qudug' 891-911 metr oraliqdan olingan neogen yotqizig'iga mansub neftning fizik-kimyoviy tasnifi (Starobines I.S., Sirajidinov I) bo'yicha zichligi - o'rtacha og'ir (0,888 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,36%), yuqori smolali (13,3%), parafinli (4,44%) va o'rtacha benzinli (17,3%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (M=55,7%, N=34,1%, A=10,2%) toifasiga mansub.

G'arbiy Polvontosh koni 69-quduq neogen yotqizig'i och-pushti svitadan olingan neft zichligi - yengil (0,843 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,22%), smolali (7,80%), yuqori parafinli (14,8%) va benzinli (25,0%).

Boston koni 446-quduq 323-348 metr oraliq neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,858 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,32%), smolali (7,8%) va benzinli (24,0%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (MNA) toifasiga mansub.

Boston koni 505-quduq neogen yotqizig'i g'ishtli-qizil svitadan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,881 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,15%), kam smolali (0,32%) va o'rtacha benzinli (14,0%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (MNA) toifasiga mansub.

Andijon koni 155 va 680-quduqlar 348-482 metr oraliq neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan neftlar zichliklari - o'rtacha og'ir (0,881-0,886 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,15-0,28%), yuqori smolali (11,4-16,9%), va benzinli (20,28-30,33%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (MNA) toifasiga mansub.

Shaxrixan-Xodjiabad koni 645-quduq I gorizontdan olingan neft fizik-kimyoviy tasnif bo'yicha zichligi - o'rtacha og'ir (0,875 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,27%), yuqori smolali (26,4%).

590-quduq 431-462 metr oraliq I gorizontdan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,859 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam smolali (4,2%), parafinli (2,21%) va benzinli (25%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (M=65%, N=21%, A=14%) toifali.

Janubiy Olamushuk koni 22-quduq 540-550 metr neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan neft fizik-kimyoviy tasnif bo'yicha zichligi - yengil (0,830 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,22%), kam smolali va parafinli (2,3%).

64-quduq I gorizontdan olingan neft zichligi - yengil (0,835 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,25%), kam smolali, yuqori parafinli (6,3%) va benzinli (30%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (M=48%, N=33%, A=19%) toifali.

Janubiy Olamushuk koni neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan neftlar asosan yengil, kam oltingugurtli, kam smolali va benzinli toifada. Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (MNA) toifada.

130-quduq neogen yotqizig'i g'ishtli-qizil svitadan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,865 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,11%), yuqori smolali (10,3%) va o'rtacha benzinli (19,83%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (M=58,6%, N=29,9%, A=11,

Tergachi koni 1-quduq 4106-4092 metr oraliq neogen yotqizig'i g'ishtli-qizil svitadan olingan neft zichligi - og'ir (0,914 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,40%), parafinli (3,46%) va yuqori smolali (15,1%).

Tergachi koni 11-quduq 4285-4288 metr oraliq neogen yotqizig'i g'ishtli-qizil svitadan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,898 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - o'rtacha oltingugurtli (0,63%), parafinli (2,0%), yuqori smolali (25,4%) va o'rtacha benzinli (18,0%).

Tergachi koni 12-quduq 4130-4180 metr oraliq neogen yotqizig'i g'ishtli-qizil svitadan olingan neft zichligi - og'ir (0,945 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,31%), yuqori parafinli (9,5%), yuqori smolali (20,5%) va o'rtacha benzinli (10,0%).

Kosonsoy koni 2-quduq neogen yotqizig'i g'ishtli-qizil svitadan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,850 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,21%), yuqori smolali (15,4%) va benzinli (22,0%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (M=61,5%, N=31,95%, A=6,51%) toifali.

Moylisuv koni 3-quduq neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,866 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,13%), yuqori smolali (13,57%) va o'rtacha benzinli (12,0%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (MNA) toifali.

Izboskent koni 30-quduq neogen yotqizig'i I gorizontdan olingan neft fizik-kimyoviy tasnif bo'yicha zichligi - o'rtacha og'ir (0,870 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,44%), yuqori smolali (13,4%) va o'rtacha benzinli (11,78%).

Mingbuloq koni 1-quduq 4800 metr chuqurlik neogen yotqizig'idan olingan neft fizik-kimyoviy tasnif bo'yicha zichligi - og'ir (0,903 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,31%), yuqori smolali (17,2%), yuqori parafinli (15,2%) va o'rtacha benzinli (11,0%). Guruhiiy uglevodorod tarkibi metan-naften-aromatika (M=57,07%, N=38,07%, A=4,86%) toifali.

Mingbuloq koni 5-quduq 5231 va 5237 metr chuqurlik neogen yotqizig'i olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,853-0,875 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,31-0,32%), yuqori smolali (13,21-13,27%), yuqori parafinli (13,7-14,2%) va o'rtacha benzinli (10,0-15,0%).

Gumxona koni 1-quduq neogen yotqizig'i qizil-g'ishtli svitadan olingan neft fizik-kimyoviy tasnif bo'yicha zichligi - o'rtacha og'ir (0,894 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,19%), yuqori smolali (38,3%), yuqori parafinli (18,6%) va o'rtacha benzinli (12,0%).

Gumxona koni 2-quduq 4434-4443 metr oraliq neogen yotqizig'i qizil-g'ishtli svitadan olingan neft zichligi - yengil (0,846 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - yuqori smolali (11,8%), yuqori parafinli (18,0%) va benzinli (24,0%).

Qorajiyda koni 1-quduq 5182 metr chuqurlik neogen yotqizig'idan qizil-g'ishtli svitadan olingan neft zichligi - o'rtacha og'ir (0,895 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - kam oltingugurtli (0,03%), yuqori smolali (15,2%), kam benzinli (2,0%) va yuqori parafinli (16,7%).

Qorajiyda koni 2-quduq 5789 metr chuqurlik neogen yotqizig'i qizil-g'ishtli svitadan olingan neft zichligi - og'ir (0,934 g/sm³), miqdoriy ko'rsatkichlari - yuqori oltingugurtli (2,47%), smolali (6,16%) va o'rtacha benzinli (15,4%) toifali.

Hozirgi kunga qadar Farg'ona neft va gaz havzasida deyarli neft-gaz xomashyo mahsulotlari qazib chiqazib olingan, shunga qaramasdan bu hududda geologik izlash va qidirish ishlari davom ettirilmoqda. Olib borilgan ishlar natijasida yangi konlar, yangi uglevodorod uyumlari mavjud strukturalar aniqlanmoqda. Bugungi kunga qadar Farg'ona neft-gaz havzasida mezozoy va kaynazoy davriga mansub bo'lgan konlarda olib borilgan ishlarning samarasida neft-gaz konlaridan olingan suvlarni kimyoviy o'rganishlar olib borilib, gidrokimyoviy materiallar to'plangan. Ushbu qilingan tahlillarda foydalanilgan suvlarning deyarli barchasi neft va gaz konlari bilan bog'liq izlash, qidirish uchun qazilgan quduqlardan olingan namunalardir. Yuqori mineralizatsiyani ko'rsatadigan suv namunalarini tahlil qilish eng ishonchli deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Irgashov Y., Xolismatov I. «Neft va gaz konlari gidro-geologiyasi» Toshkent-2022. 308 bet.

2. Акрамходжаев А.М. «Углеводороды газовой фазы нерастворенного органического вещества и некоторые вопросы определения оптимальных глубин начала их эмиграции». Узб. Геол. журн., №2, 1971 г.
3. Шоймуратов «Комплексные гидрогеологические исследования и построение гидродинамических моделей с целью оценки размещения Т.Х. пластовых флюидов разведываемых площадей и месторождений Бухаро-Хивинского региона». Тема № ПД99-15Б (за период 01.01.2015 г. - 31.12.2015 г.) Т. 2015 г.
4. Шоймуратов Т.Х. «Гидрогеологический исследования водоносных горизонтов поисково-разведочных и комплексный оперативный анализ пластовых вод по объектам ДХО «Предгиссарская НГРЭ» за период. Раб. С 01.01.2016 г. по 31.12.2017 г.
5. Парпиев М.В., Жураев Ф.Ф. «Альбом типового состава и свойств нефтей неогеновых, палеогеновых, меловых и юрских отложений месторождений Ферганского нефтегазоносного региона». «ГУ ИГИРНИГМ» 2022г.
6. Нурматов М.Р. Халисмаев И.Х., Урманова.А.Х., Абидов Х.А. – Перспективы нефтегазоносности палеозойских отложений юга Ферганского региона свете новых геолого-геофизических данных. – «фан ва технология», 2018, 192 бет.
7. Султанходжаев А.Н., Стойнов Т.Ф., Месторождения минеральных вод Ферганы (Академ наук Узбекской ССР институт Сейсмологии). Ташкент-1974. 233 бет.